



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети


1. Diloram Babajanova O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI:ILM-FAN DARG‘ALARI TARIXDA VA HOZIR.....	5
2. Nilufar Dalibayevna Djurayeva XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDA SOVETLAR SIYOSATI: MANBALAR TAHLILI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.....	13
3. Наргиза Абдурахманова ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА АБУЛ БАРАКОТ НАСАФИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	30
4. Шерзод Таштурсунович Бахранов ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНИНИ РИВОЖЛАНИШИ: ЮТУҚ ВА МУАММОЛАРИ.....	37
5. Ixtiyor Voxodir o‘g‘li Voxodirov TURKISTON HARBIY OKRUGI TOMONIDAN 1916-YILGI JIZZAX QO‘ZG‘OLONING BOSTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....	47
6. Наргиза Кенжаева ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ПРОСОПОГРАФИК МЕТОДНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ: ПОМИР РУС ТАДҚИҚОТЧИЛАРИНИНГ ЖАМОАВИЙ БИОГРАФИЯСИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	53
7. Lola Yusupovna Samatova IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI SOVET UCHUVCHI AYOLLAR BO‘LINMASI TO‘G‘RISIDA.....	66
8. Ismoil Alimbayevich Nurmetov O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI (BRM) AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI.....	72
9. Malika Xaydarova Shaxriddin qizi AMIR TEMURNING JANGLARDAGI HARBIY MAHORATI.....	78
10. Feruza Erkinovna Atajanova OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR TENDENSIYALAR TAHLILI.....	83
11. Muborak Madrimovna Matyakubova XVI-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGI BOZORLARIDA BOZORBOSHI, RAIS, MUHTASIB, SARROFLAR VA DALLOLLARNING FAOLIYATI VA HUQUQIY MAQOMI.....	89
12. Анварбек Муродович Омонов, Маъруфжон Нурулиевич Рўзиев КЎЛБУЛОҚ МАКОНИ ТОШ ИНДУСТРИЯСИНИНГ ТАҲЛИЛИГА ДОИР (ИЛК ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА).....	94



Nilufar Dalibayevna Djurayeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri,
tarix fanlari nomzodi, professor

XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDA SOVETLAR SIYOSATI: MANBALAR TAHLILI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

For citation: Nilufar D. Djuraeva. SOVIET POLICY ON WOMEN'S ISSUES: SOURCE ANALYSIS AND HISTORIOGRAPHICAL ISSUES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082737>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sovet davrida xotin-qizlarga nisbatan amalga oshirilgan davlat siyosati manbalar asosida tahlil etilgan hamda bu jarayonning tarixshunoslik masalalari tahlil etilgan. Sovet hokimiyati xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga jalb qilinishini rag‘batlantirish siyosatini olib borgan, bu jarayonda ayollarni ta‘limga jalb etish va ularning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Sovet siyosati xotin-qizlarni teng huquqlar bilan ta‘minlash maqsadida dekretlar va targ‘ibot vositalaridan foydalandi, ammo milliy xususiyatlar hisobga olinmagan holda sinfiy yondashuv ustunlik qildi. Asosiy manbalar sifatida sovet davri hujjatlari, partiya arxivlari, ilmiy dissertatsiyalar va OAVda e‘lon qilingan maqolalar o‘rganilgan bo‘lib, ular orqali siyosatning ijobiy va salbiy tomonlari, shu jumladan mahalliy xotin-qizlarning faolligini oshirishdagi cheklovlar aniqlangan, kommunistik mafkura ta‘siri qiyosiy ko‘rib chiqilgan. Sovet siyosatining samaradorligi va uning milliy kontekstdagi ta‘siri bahsli bo‘lib, maqolada bu masalalar xolis yoritilgan: ayollar huquqlari ustidan targ‘ibot bir tomondan tenglikni targ‘ib qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy o‘zgarishlarni cheklagan. Tadqiqot O‘zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstida dolzarb tarixiy muammolarni hal qilishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, tashkilot, ayollat huquqi, gender tenglik, jamiyat, xotin-qizlar ahvoli.

Джураева Нилуфар Далибаевна,
Узбекский государственный университет мировых языков
Заведующая кафедрой истории Узбекистана,
Кандидат исторических наук, профессор

СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН: АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ И ИСТОРИОГРАФИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе источников анализируется государственная политика в отношении женщин в советский период и рассматриваются историографические аспекты этого процесса. Советские власти проводили политику поощрения участия женщин в социально-политической, экономической и культурной жизни, в рамках которой приоритетными направлениями были определены участие женщин в образовании и общественном производстве. Советская политика использовала указы и пропагандистские инструменты для обеспечения женщинам равных прав, но преобладал классовый подход без учета национальных особенностей. В качестве основных источников изучались документы советской эпохи, партийные архивы, научные диссертации и статьи, опубликованные в СМИ, на основе которых были выявлены положительные и отрицательные аспекты политики, включая ограничения на повышение активности местных женщин, а также сравнительно рассмотрено влияние коммунистической идеологии. Эффективность советской политики и ее влияние на национальный контекст являются спорными, и в статье представлен объективный анализ этих вопросов: с одной стороны, кампания за права женщин способствовала равенству, а с другой – ограничивала социальные изменения. Исследование вносит вклад в решение современных исторических вопросов в контексте Узбекистана и Центральной Азии.

Ключевые слова: женщины, организации, права женщин, гендерное равенство, общество, положение женщин.

Nilufar D. Djuraeva,

Uzbek State University of World Languages
Head of the Department of History of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences, Professor

SOVIET POLICY ON WOMEN'S ISSUES: SOURCE ANALYSIS AND HISTORIOGRAPHICAL ISSUES**ABSTRACT**

This article analyzes the state policy implemented in relation to women during the Soviet period based on sources and analyzes the historiographical issues of this process. The Soviet authorities pursued a policy of encouraging the involvement of women in socio-political, economic and cultural life, in which the involvement of women in education and their participation in social production were identified as priority areas. Soviet policy used decrees and propaganda tools to provide women with equal rights, but a class approach prevailed without taking into account national characteristics. Soviet-era documents, party archives, scientific dissertations and articles published in the media were studied as the main sources, through which the positive and negative aspects of the policy, including restrictions on increasing the activity of local women, were identified, and the influence of communist ideology was comparatively considered. The effectiveness of Soviet policies and their impact in the national context are controversial, and the article provides an objective account of these issues: while the campaign for women's rights promoted equality on the one hand, it also limited social change on the other. The study contributes to addressing current historical issues in the context of Uzbekistan and Central Asia.

Index Terms: women, organizations, women's rights, gender equality, society, women's status.

1. Dolzarbligi:

XX asrda sovet hokimiyati Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini o'z siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatdi. Bu siyosat bir tomondan ayollarni ijtimoiy hayotga jalb etish, savodxonligini oshirish va huquqiy maqomini o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mafkuraviy nazorat va tezkor ijtimoiy o'zgarishlar vositasi bo'lib xizmat qildi. Shu bois bu mavzuni o'rganishda manbalar tahlili va tarixshunoslik yondashuvlari alohida

ahamiyat kasb etadi. Sovet davridagi xotin-qizlar siyosatini o'rganishda birlamchi va ikkilamchi manbalar turlicha mazmun beradi. Birlamchi manbalarga partiya qarorlari, sovet hukumatining farmonlari, xotin-qizlar bo'limlari hujjatlari, statistik hisobotlar, matbuot materiallari, targ'ibot risolalari va sud-tergov hujjatlari kiradi. Bu hujjatlar siyosatning rasmiy maqsadlarini, uning amalga oshirish mexanizmlarini va davlatning o'zi qanday munosabatda bo'lganini anglashga yordam beradi.

Ikkilamchi manbalar esa keyingi davr tadqiqotlari, maqolalar, dissertatsiyalar va tahliliy ishlardan iborat bo'lib, ular sovet siyosatining ijtimoiy oqibatlarini baholashga xizmat qiladi. So'nggi yillardagi ishlarda sovet gender siyosati ko'pincha paradoksal hodisa sifatida talqin qilinadi: ayollarni "ozod qilish" shiori ostida nazorat kuchaytirilgan, mahalliy urf-odatlariga keskin aralashuv esa ko'plab ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqargan.

Sovet hokimiyati xotin-qizlar masalasini faqat ijtimoiy tenglik doirasida emas, balki siyosiy safarbarlik vositasi sifatida ham ko'rdi. Turkistonda xotin-qizlar bo'limlarining tashkil etilishi, ayollarni ishlab chiqarishga jalb qilish, savodxonlik kampaniyalari va pardani yechish kabi tashabbuslar shular jumlasidan edi. Rasmiy nutqda bu chora-tadbirlar "ozodlik" va "modernizatsiya" deb izohlangan.

Biroq amaliyotda siyosat ko'pincha shoshma-shosharlik va majburlov bilan kechdi. Ayrim hududlarda bu kampaniyalar ijtimoiy qarshilik, oilaviy nizolar va hatto zo'rvonlik holatlariga olib kelganligi qayd etiladi. Shuning uchun sovetlar siyosatini faqat ijobiy islohot sifatida emas, balki murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida ko'rish lozim.

Tarixshunoslikda bu mavzu uzoq vaqt sovet mafkurasi ta'sirida o'rganildi. Dastlabki tadqiqotlarda xotin-qizlar siyosati asosan "ozodlik", "tenglik" va "taraqqiyot" kategoriyalari orqali sharhlangan bo'lib, tanqidiy yondashuv cheklangan edi. Bunday ishlar sovet hokimiyatining "progressiv" rolini ta'kidlashga moyil bo'lgan.

Mustaqillikdan keyingi tadqiqotlarda esa masalaga yangicha qarash kuchaydi. Endilikda sovet siyosatining mustamlakachilik tabiati, mahalliy jamiyatga majburiy aralashuvi, gender siyosatining ideologik maqsadlari va uning real ijtimoiy natijalari ko'proq tahlil qilinmoqda. Natijada tarixshunoslikda bir yoqlama "ozodlik" talqinidan voz kechilib, murakkab, ko'p qatlamli yondashuv shakllanmoqda.

2. Metodlar:

Bu mavzuda ishlashda manbalarni tanqidiy o'rganish va tahlil etish maqsadga muvofiq. Sovet davri hujjatlari rasmiy mafkura ruhida yozilgani uchun ular voqelikni ko'pincha bir tomonlama aks ettiradi. Masalan, statistik ma'lumotlar xotin-qizlarning ishlab chiqarish va ta'limga jalb etilganini ko'rsatishi mumkin, ammo bu raqamlar majburiylik, ijtimoiy bosim va norozilik shakllarini har doim ham ochib bermaydi. Shu sababli og'zaki tarix, mahalliy xotiralar rasmiy hujjatlarni to'ldirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlar masalasidagi sovetlar siyosati tarixan bir vaqtning o'zida ham modernizatsiya, ham ideologik nazorat vositasi bo'lgan. Uni o'rganishda faqat rasmiy sovet hujjatlariga tayanish yetarli emas; tanqidiy, qiyosiy va ko'p manbali yondashuv zarur. Tarixshunoslikdagi yangi yo'nalishlar aynan shu murakkablikni ochib berishga xizmat qiladi.

3. Tadqiqot natijalari:

O'rganilayotgan mavzuga doir manbalarni quyidagi guruhlariga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq: birinchi guruhga sovet hukumati markaziy idoralarining hisobot va statistik ma'lumotlari; ikkinchi guruhga milliy rahbarlar va xotin-qizlar harakati faollarining asarlari; uchinchi guruhga arxiv hujjatlari; to'rtinchi guruhga davriy matbuot materiallari kiradi.

Birinchi guruhga sovet hukumati tomonidan qabul qilingan qonunlar[1], qarorlarni[2] hamda markaziy idoralarining hisobot[3] va statistik ma'lumotlarini kiritish mumkin[4]. Mazkur tarixiy hujjatlarda xotin-qizlar masalasidagi sovetlar siyosatining ziddiyatli jihatlari o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi guruhga milliy rahbarlarning asarlari[5] va xotin-qizlar harakati faollarining mahalliy millat ayollarini jamiyatdagi ishtirokini kengaytirish, ularni "ozodlikka chiqarish", ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish masalasiga doir maqola va risolalari kiritilgan[6] bo'lib, ularda

sovetlar siyosatiga munosabat o'z ifodasini topgan. Mazkur manbalarda mahalliy millat xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga jalb qilinishi bir yoqlama, sinfiylik nuqtai nazaridan yoritilib, sovet hokimiyatining siyosiy maqsadlariga xizmat qilgan. Keyinchalik bu muammoning tadqiq qilinishi bilan bog'liq masalalarga milliy rahbarlar ham jalb qilingan[7]. Ularning maqola va ma'ruzalarida ham, sovet hokimiyatining xotin-qizlarga munosabat masalasiga doir siyosati ijobiy baholanib, o'zbek ayollariga xos bo'lgan asrlar davomida shakllanib, ularning turmush tarziga, ma'naviy qiyofasiga aylangan milliy, diniy, an'anaviy qadriyatlar "xurofot" sifatida qoralanib, kommunistik mafkura manfaatlariga zid kelganligi uchun kamsitilgan.

Xususan, "Hujum" deb nomlangan paranji tashlash kampaniyasiga mas'ul xodimlar, milliy arboblardan bir qancha xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilganini manbalarda ko'rish mumkin. "Hujum" harakati tufayli yuzaga kelayotgan mudhish hodisalarning salbiy oqibatlariga qarshi o'sha davrda "qishloq burjuaziyasi", "sotsializm dushmanlari", "aksil inqilobchilar", "xalq dushmanlari", "kolxoz dushmanlari" deb nom olgan xalq yetakchilari, milliy arboblardan va o'ziga to'q, xo'jaligini bemalol yurgiza oladigan tadbirkor dehqonlar kurash olib bordilar. Jumladan, vaziyatni to'g'ri baholagan milliy arboblardan biri yer-suv ishlari Xalq Komissari I.Xidraliyev: "Mamalakat stixiyali ravishda ruslar bilan to'lib-toshib ketmoqda... O'rta hol dehqon hamisha norozi... Xotin-qizlarni ozod etishdagi bilmasliklar sovet hukumati yillab to'plagan obro'yini yo'qqa chiqaryapti, shuni yodda tutingki, urush bo'lgan chog'da dehqon bizni qo'llab-quvvatlamaydi"[8], – degan fikrni bildirgan edi. Lekin, uning bu fikrlariga partiya uchun tuhmat deb, qaralgan[9].

Zamona zayli bilan ish olib borgan, ba'zida murosachilik, taslimchilik yo'lini tutishga majbur bo'lgan, markazning chizgan chizig'idan chiqmay faoliyat olib borgan mas'ul partiya xodimi, ya'ni O'zKP MQ birinchi kotibi A.Ikromovning "O'zbekistonda xotin-qizlar masalasi" nomli asarida quyidagi so'zlarni o'qiydiz: "Xotin-qizlar partiya safiga kirish uchun intilmoqlari kerak. Ular eski, chirigan hayotni tag-tugi bilan yo'qotib tashlab, o'zlari uchun yangi sharoit yaratadilar, hayotga yangi urf-odatlarini kiritadilar, bunga bizni kommunistlar partiyasi chaqirmoqda, paranji tashlash masalasi ulkan, uzoqqa cho'ziladigan va og'ir ishning boshlanishi, xolos". Shu bilan birga, A.Ikromov 1927-yil 7-oktabrda Umumo'zbek xotin-qiz xodimlarining yig'ilishida ma'ruza qilib, "Hujum" harakati davomidagi "muvaffaqiyatlar" haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: 1927-yil mart–may oylarida 100 ming ayol paranji tashlagan, 200 ta oilaviy to'garaklar tashkil topgan. 5 ming ayolni o'zida mujassamlashtirgan 120 ta savodsizlikni tugatish maktablari faoliyat ko'rsatgan. Xalq vakillarining qayta saylovlarida 5202 ayol, ya'ni xalq vakillarining 24,8 foizi qatnashganligini ta'kidlaydi[10]. Bu raqamlar xalqning ijtimoiy-ruhiy holati, diniy-ma'naviy omillarini hisobga olmasdan, mensimasdan qo'rqitish, vahimaga solish, jazolash, tazyiq o'tkazish usullari bilan qo'lga kiritilganligi uchun ko'plab qurbonlar berishga ham sabab bo'lganligi haqida esa hech nima deyilmaydi. A.Ikromov, shuningdek, "Hujum" davrida ba'zi partiya va boshqaruv vakillarining ruhoniylarga suyanishini tanqid qilib, asosan: "bizning armiya batraklar, kambag'allar, o'rta hollar"dan iborat, – deb ta'kidlaydi. Hamda "Hujum" harakati uzoq davom etadigan jarayon ekanligini, uni sekin-astalik bilan reja asosida olib borish zarurligini ko'pchilik tushunmayotganligini, joylarda xotin-qizlar "ozodligi"ni tashkil etish usullarining noto'g'ri ekanligi, ya'ni asosan ma'muriy-buyruqbozlikdan iborat bo'layotganligini ta'kidlaydi[11]. Chunki, kampaniyabozlik bilan boshlanib ma'muriy-buyruqbozlik bilan davom etgan harakatning ayanchli oqibati shundan dalolat berardi.

Akmal Ikromov O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi sifatida, Sovet tuzumining sodiq tarafdori bo'lib, "Hujum" kampaniyasini faol ravishda qo'llab-quvvatlagan. A.Ikromov "Hujum" kampaniyasini Sovet Ittifoqining modernizatsiya va ateizm siyosatining muhim qismi deb hisobladi. U ayollarning paranjidan voz kechishi, ta'lim olishi va mehnat jarayonlariga jalb qilinishi O'zbekistonni "sovetlashtirish" va ijtimoiy progress uchun zarur deb bildi. A.Ikromovning bolshevistik g'oyalarga sodiqligi uning kampaniyani qat'iy amalga oshirishga intilishida yaqqol ko'rindi. U mahalliy partiya tashkilotlari orqali kampaniyani targ'ib qilishda yetakchi rol o'ynadi va ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etdi.

Shuningdek, A.Ikramovning “Hujum”ga munosabati ko‘proq markazning qattiq siyosatiga mos edi. U mahalliy an‘analarga unchalik e‘tibor bermay, Sovet tuzumining talablarini qat‘iy bajarishga harakat qildi. Masalan, uning rahbarligi ostida paranjiga qarshi ommaviy tadbirlar uyushtirildi, ayollarning majburiy savodxonlik kurslariga jalb qilinishi va jamoat ishlariga qatnashishi rag‘batlantirildi. Bu yondashuv ba‘zida mahalliy aholining noroziligiga sabab bo‘ldi, chunki kompaniya ko‘pincha majburiy va shoshilinch tarzda amalga oshirildi.

A.Ikramov “Hujum” kampaniyasi natijasida yuzaga kelgan mahalliy qarshiliklarni “sovetga qarshi” yoki “burjua millatchiligi” sifatida baholadi va ularga qarshi qattiq choralar ko‘rishni qo‘llab-quvvatladi. Bu uning sovet tuzumiga sodiqligini va mahalliy xalqning diniy-madaniy qadriyatlariga nisbatan befarqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, uning bu pozitsiyasi mahalliy ziyolilar va an‘anaviy jamiyat vakillari bilan ziddiyatlarni kuchaytirdi.

Yana bir milliy arbob F.Xo‘jayev ham 1927-yil 30-martda bo‘lib o‘tgan respublika sovetlarining II s‘yezdida dindorlarni “sovet madaniyati”ga hujum qilayotganlikda ayblaydi va madaniyat uchun kurashni xotin-qizlar ozodligi uchun kurash, deb ataydi. Shu bilan birga xotin-qizlar ozodligini “muhim iqtisodiy ahamiyatga ega” ekanligini, “xotin-qizlarning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga ularning yopiqligi, savodsizligi, oyoq-qo‘llari maishiy urf-odatlar tufayli diniy sarqitlar bilan bog‘liqligi to‘siq bo‘layotganligi”ni ta‘kidlab, ularning “deyarli sotsialistik davlat qurilishida ishtirok etmayotganligi”ni tanqid qiladi[12]. Ko‘rinib turganidek, F.Xo‘jayev ham zamonaga hamnafas fikr bildirgan. Lekin u amalda bo‘lmasa-da, g‘oyaviy jihatdan sovetlarning ma‘muriy-buyruqbozlik usullari bilan olib borayotgan “sotsialistik eksperimentlar”ga asoslangan mustamlakachilik siyosatiga qarshi bo‘lgan “18 lar guruhi”ga xayrixoh bo‘lgan.

18 nafar mas‘ul partiya va sovet xodimlarini o‘z ichiga olgan bu guruh o‘zbek ayollarini ozodlikka chiqarishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yilayotganligiga, ma‘muriy tazyiq o‘tkazilayotganligiga, do‘q-po‘pisa va jarimalar solish bilan va militsiya yordamida kuch ishlatib ayollarni majlislarga olib kelish hollariga qarshi chiqqan. Ular respublikada o‘tkazilayotgan islohotlarning borishida o‘lkaning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olishni taklif qilganlar. Biroq, ularning bu chiqishi kommunistlarning ulkan guruhi tomonidan qarshilikka uchrab, “xalq dushmani” sifatida qatag‘on domiga tortildi.

Shuningdek, milliy muxolifat “Hujum” harakati jarayonida ayollarning yuzini ochish bilan bog‘liq bo‘lgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini nafaqat ayollar o‘rtasida, balki erkaklar o‘rtasida ham olib borilishi lozimligi, so‘ngra ayollar yuzining ochilishi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda sovetlar tomonidan “xurofotchilar” deb qoralangan ruhoniylarga suyanish mumkinligi haqidagi fikrlar inobatga olinmadi. Aksincha, ruhoniylarga sinfiy dushman sifatida qaraldi. Dindorlar ta‘qib va tazyiq ostiga olindi. Aslida, “milliy muxolifat” sotsialistik tuzumning fundamental asoslariga daxl qilgan emas, balki “sotsialistik qurilish”ning boshqa yo‘lini taklif etgan. Ular taklif etgan yo‘l jamiyatni totalitarizmga tomon borishining oldini olishga, sovet milliy siyosatining salbiy jihatlarini bartaraf etishga, milliy manfaatlarni qayta tiklash jarayonlari bilan uzviy uyg‘unlashtirib borishga, demokratiya prinsiplariga va gumanistik qadriyatlarni qaror toptirishga yordam bergan bo‘lur edi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Akmal Ikramov va Fayzulla Xo‘jayevning sovet hokimiyatida xotin-qizlarga masalasidagi va “Hujum” kampaniyasi (1927–1929)ga munosabati ularning umumiy siyosiy pozitsiyalari, milliy manfaatlar va sovet tuzumiga sodiqlik darajasiga bog‘liq ravishda turlicha bo‘lgan. Jumladan, F. Xo‘jayev jadidchilik harakatining sobiq vakili sifatida, ayollar ta‘limi va ijtimoiy erkinliklarini qo‘llab-quvvatlash tarafdori edi, chunki bu jadidchilik g‘oyalarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. F. Xo‘jayev mazkur kompaniya ayollarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va ta‘lim olishini milliy taraqqiyotning muhim omili deb hisoblagani holda “Hujum” kampaniyasini ayollarning savodxonligini oshirish va iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish uchun foydali deb topdi va shuning uchun ham mazkur harakatni qo‘llab-quvvatladi. Masalan, uning tashabbusi bilan O‘zbekistonda ayollar uchun maxsus maktablar va kasb-hunar o‘quv yurtlari tashkil etildi. F.Xo‘jayevning jadidchilik davridagi faoliyati, xususan, Buxoro Xalq Sovet Respublikasida ayollar huquqlari bo‘yicha islohotlarni qo‘llab-quvvatlashi uning “Hujum”ning maqsadlariga ma‘lum darajada mos kelishini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan esa, F.Xo‘jayev “Hujum” kampaniyasining radikal (keskin) usullariga, xususan, paranni kiyishni majburiy ravishda ta‘qiqlashga va diniy an‘analarga qarshi qattiq choralar ko‘rishga ehtiyotkorlik bilan yondashdi. U mahalliy xalqning an‘anaviy qadriyatlariga hurmat bilan qarash va ularni asta-sekin modernizatsiya qilish tarafdori edi. F.Xo‘jayev O‘zbekistonning konservativ[13] jamiyatida bunday keskin o‘zgarishlarning salbiy reaksiyalarga, hatto qarshilik harakatlariga olib kelishi mumkinligini tushunardi. U markazning bosimi ostida kampaniyani qo‘llab-quvvatlashga majbur bo‘lsa-da, mahalliy xalqning diniy va madaniy sezgirliklarini hisobga olishga harakat qildi. Shuning uchun ham F.Xo‘jayev mahalliy sharoitlarni hisobga olishga harakat qildi.

Uchinchidan, F.Xo‘jayevning “Hujum” kampaniyasiga qisman qarshiligi uning I.Stalin bilan munosabatlaridagi taranglikning bir qismi sifatida ko‘rilishi mumkin. U markazning qattiq siyosatini yumshatishga urinardi, chunki kampaniyaga nisbatan radikal yondashuvi ko‘pincha mahalliy aholi orasida norozilik va qarshilik uyg‘otardi. Bu holat uning milliy manfaatlar va sovet tuzumining talablari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga urinishini aks ettiradi.

F.Xo‘jayev va A.Ikramov o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarga e‘tibor qaratilsa, F.Xo‘jayev “Hujum” kampaniyasini qisman qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, uning radikal usullariga ehtiyotkorlik bilan yondashdi va mahalliy xalqning an‘anaviy qadriyatlarini hisobga olishga harakat qildi. A.Ikramov esa kampaniyani markazning qattiq yo‘riqnomalariga muvofiq va radikal tarzda amalga oshirdi, mahalliy ijtimoiy–an‘anaviy munosabatlarga unchalik e‘tibor bermadi. F.Xo‘jayevning jadidchilik qarashlari uning ayollar huquqlari masalasida ko‘proq milliy nuqtai nazarga ega bo‘lishiga yordam berdi, A.Ikramovning bolshevistik sodiqligi esa uni markazning talablariga qat‘iy rioya qilishga undadi.

Har ikkala milliy rahbar ham “Hujum”ning umumiy maqsadlarini – ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish va ta‘lim darajasini ko‘tarishni – qo‘llab-quvvatladi, chunki bu O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun muhim edi. Ammo ularning yondashuvlari uslub va maqsadlarni amalga oshirishda farq qildi.

Fayzulla Xo‘jayev “Hujum” kampaniyasini ayollar huquqlari va ta‘limni rivojlantirish nuqtai nazaridan qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, uning radikal usullariga ehtiyotkorlik bilan yondashdi va mahalliy xalqning an‘anaviy qadriyatlarini hisobga olishga harakat qildi. Akmal Ikramov esa kampaniyani sovet tuzumining modernizatsiya siyosatining bir qismi sifatida faol qo‘llab-quvvatladi va markazning qattiq yo‘riqnomalariga muvofiq radikal tarzda amalga oshirdi. Har ikki milliy xalq yetakchilarining munosabatlari ularning milliy manfaatlar va sovet tuzumiga sodiqlik o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq edi, ammo A.Ikramovning yondashuvi ko‘proq markazga xizmat qilgan bo‘lsa, F.Xo‘jayev mahalliy sharoitlarni yumshatishga urinardi.

Uchinchi guruhga arxiv ma‘lumotlari kiritilgan, bo‘lib, ushbu hujjatlarda Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning o‘rni va ularga nisbatan munosabat muhim masalalardan biri bo‘lganligini aks ettiruvchi, xotin-qizlar huquqlari va ularning tashkilotlari faoliyatiga oid ko‘plab tarixiy ma‘lumotlarni ko‘rish mumkin. Ushbu hujjatlar O‘zbekiston Milliy Arxivi, O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi va mahalliy viloyat arxivlarida saqlanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Milliy arxividagi R-17-jamg‘arma Turkiston ASSR Ishchi, dehqon va askar deputatlari Markaziy Ijroiya Komiteti, R-25-jamg‘arma Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti, R-34-jamg‘arma Turkiston ASSR Maorif Xalq Komissarligi, R-86-jamg‘arma O‘zbekiston SSR Ishchi, dehqon va qizil askar deputatlari Markaziy Ijroiya Komiteti, R-90-jamg‘arma O‘zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligi, R-94-jamg‘arma O‘zbekiston SSR Yer ishlari Xalq Komissarligi, R-95-jamg‘arma O‘zbekiston SSR Ishchi-dehqon inspeksiyasi Xalq Komissarligi hamda R-837-jamg‘arma O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti faoliyatiga oid hujjatlarni o‘z ichiga olib, ularda xotin-qizlar masalasiga doir hujjatlar asosan “Hujum” kampaniyasi (1927–1929) va undan keyingi davrlarda ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni yoritadi. Xususan, kommunistik partiya Markaziy Qo‘mitasining xotin-qizlar huquqlari, ta‘limi va mehnat faoliyatiga oid qarorlari, “Hujum” kampaniyasini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar, mahalliy partiya tashkilotlariga yuborilgan direktivalar, ayollarning savodxonlik kurslariga jalb qilinishi va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan reja va hisobotlar shular jumlasiga kiradi. Xotin-qizlar kengashlari

faoliyatiga oid hujjatlarda O‘zbekiston SSR Xotin-qizlar kengashining tashkiliy tuzilmasi, yig‘ilish bayonnomalari va ish rejalari, ayollar o‘rtasida ma‘rifiy tadbirlar (seminarlar, konferensiyalar) tashkil etish haqidagi hisobotlar, mahalliy xotin-qizlar tashkilotlarining faoliyati, masalan, ayollarning jamoa xo‘jaliklarida ishtiroki va mehnat huquqlari bilan bog‘liq ma‘lumotlar saqlanadi. Ijtimoiy islohotlar va gender tengligi borasida ayollarning siyosiy huquqlari, xususan, saylovlarda ishtirok etishi va partiya organlarida vakillik masalalariga oid hujjatlar, paranjiga qarshi kampaniyalar va diniy an‘analarga ta‘sir ko‘rsatish bo‘yicha partiya siyosati haqidagi direktivalar, mahalliy xalqning “Hujum” kampaniyasiga qarshiliklari va ularni bartaraf etish choralariga doir hisobotlar mavjud[14]. Jamg‘armalar sovet davridagi ijtimoiy islohotlarni, xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotga integratsiyasini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Sovet davridagi arxiv hujjatlari orqali ayollarning Sovet tuzumida erishgan yutuqlari, shuningdek, duch kelgan qiyinchiliklari va jamiyatning konservativ qatlamlari bilan ziddiyatlari aniq namoyon bo‘ladi. Arxiv hujjatlarining ilmiy jihatdan tahlil qilinishi gender tengligi va ayollar huquqlari sohasidagi tarixiy jarayonlarni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchi guruh manbalari hisoblangan davriy matbuotda ham mavzuga doir ma‘lumotlar keltirilgan jurnal va gazetalardagi maqolalar tahlil etilgan[15]. Jumladan, XX asrning boshlarida Turkiston ma‘rifatparvarlari matbuotida ham xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni masalasiga jadidlar o‘z munosabatini bildirib, ayollarni ilmga jalb etish orqali ularni jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga da‘vat etishgan, ularni jamiyat rivojiga hissa qo‘shishiga sharoit yaratish uchun kurashishgan[16].

Jadidlar XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida ayollarni rag‘batlantirish, ularni ziyoli etib tarbiyalash bilangina millatni qayta tiklash mumkinligini anglagan holda, ayollar borasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va ularni ma‘rifatli qilish uchun keng targ‘ibot ishlarini olib borishgan. Jadidlar musulmon xotin-qizlarining huquqsizligini, jamiyatda ularga nisbatan mavjud bo‘lgan an‘anaviy patriarxal munosabatlarni anglagan holda, o‘z dasturiy faoliyatlarida ayollar muammosini hal etish uchun jamiyatni isloh qilish g‘oyalarini ilgari surdilar.

Xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, jamiyatda ularning erkaklar bilan teng huquqliligini ta‘minlash, balog‘atga yetmagan qizlarni erga berishni ta‘qiqlash kabi ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar dastavval ma‘rifatparvarlarimizning harakat dasturida o‘z ifodasini topgan edi. Lekin, bu g‘oyalar ularning biron-bir maxsus hujjatlarida rasmiy ravishda belgilanmagan. Shunday bo‘lsa-da, ayrim hujjatlar va xotiralarda jadidlarning “Sho‘roi Islom” tashkiloti musulmon xotin-qizlarining hokimiyat organlariga saylovlarda ishtiroki haqidagi masalani birinchilardan bo‘lib ko‘tarib chiqqanligi haqida guvohlik beradi[17].

Xususan, “Najot” gazetasining 1917-yil 28-apreldagi sonida qayd etilishicha, 1917-yilgi fevral inqilobi ta‘sirida ancha faollashgan mahalliy taraqqiyparvarlar va qadimchilar o‘rtasidagi qizg‘in bahslarning avj olishiga olib kelgan qarama-qarshilikning eng o‘tkir masalalaridan biri-turkistonlik xotin-qizlarning saylovda ishtirok etishi muammosi bo‘lgan[18].

Qadimchilar xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy faoliyatda ishtiroki shariat va tariqat qoidalariga zid keladi degan fikrni o‘rtaga surishdi. Ular musulmonlarning muqaddas kitobi bo‘lgan Qur‘ondagi ayollarning zaifa ekani borasidagi bir qator ko‘rsatmalarga murojaat qilib, ular ikkinchi darajali, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda ishtirok etishga noqobil mavjudot deb isbotlashga harakat qilishdi. Ularning fikricha, xotin-qizlarning asosiy vazifasi va hayotining mazmuni-eriga itoatkorlik bilan xizmat qilishdir, zotan “erlar xotinlaridan yuqori turadi, chunki Alloh dastlabkilariga keyingilari ustidan afzallik bergan va shu bois ham o‘z mulklaridan ularga sarflashadi”[19] (“Al-Izoh”, 1917, №5-6).

Shu munosabat bilan keyinchalik “Hurriyat” gazetasi quyidagilarni yozadi: “Shunisi qiziqki, bu muhtaram zotlar ilgaridan ayollar to‘yga, mehmonga, qabristonga erkin borib kelishganiga e‘tibor berishmaganmikan. Endi esa, diniy va milliy huquqlarimizni o‘z qo‘limizga olish payti yetib kelganda, ular ayollarning saylovdagi ishtirokiga qarshi turishibdi” (“Hurriyat”, 1917, 18 iyul).

O‘lkamusho‘rosining “Kengash” gazetasi ayollarning saylovda ishtiroki masalasi bo‘yicha qadimchilarning xatti-harakatini qoralab, ogoh etdiki, agar Turkiston musulmonlari shu darajada qoloq bo‘lsalar, unda ularning yarmi saylov huquqidan mahrum bo‘ladi. Shu sabab tufayli biz

nafaqat Dumada, balki Ta'sis Majlisida ham vakillarga ega bo'lolmaymiz ("Kengash", 1917, 25 iyul).

Taraqqiyparvarlar ularga tushuntirishdiki, saylov paytida xotin-qizlar alohida nazorat ostida bo'ladi va musulmon axloqi me'yorlariga rioya etiladi. Xotin-qizlar saylov uchastkasiga hijob bilan keladi va o'zlari uchun maxsus ajratilgan xonalarda saylov varaqalarini tashlashadi. Oxir oqibatda musulmonlar qurultoyi quyidagi mazmunda qaror qabul qildi:

1. Shu bugundan (1917-yil 20-aprel) e'tiboran Ta'sis Majlisiga tayyorgarlik boshlansin.
2. Ta'sis Majlisiga delegatlarni saylashda musulmon xotin-qizlariga teng huquqlar berilsin.
3. Xotin-qizlarning saylovda ishtiroki shariat doirasida olib borilishi lozim[20].

Jadidchilik harakati jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy huquqlarini, erkinliklarini tiklash, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash, ma'rifatli qilish va ularga nisbatan o'rta asrdan saqlanib kelayotgan eskicha munosabatlardan qutulish to'g'risidagi yangi g'oyaviy oqimlarni o'zlashtirardi hamda O'rta Osiyo musulmon jamiyati qoloqligini va jaholatini bartaraf etish uchun g'arb yutuqlarini singdirishni targ'ib qilardi. Chunki, jadidlar ma'rifatsiz jamiyatda hukmronlik qiladigan o'zboshimchalik, jabr-zulm, adolatsizlik, johillik, zo'ravonlik avvalombor ayollar hayotida tezroq va to'laroq o'z ifodasini topishini yaxshi anglagan. Shuning uchun ham, ular xotin-qizlarni ma'rifatli qilish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularning iste'dod va qobiliyatlarini ishga solish, diniy va dunyoviy ilm imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun sharoit yaratish, o'zbek ayollarini Yevropa ayollaridek erkaklar bilan teng huquqli hayot kechirishlari mumkinligi haqida mushohada yuritishib, ularni yangicha ozod hayot kechirishga chaqirishgan.

Jadidlar "xotin-qizlarni jamiyatning to'la qonli a'zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to'g'ri hal qilmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'lida tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas, oxir oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog'liqdir[21]", – deb, o'z harakatlari davomida quyidagi g'oyalarni hayotga tatbiq etish uchun kurashdilar:

- ayollarning oiladagi o'rnini belgilash orqali, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish, diniy va dunyoviy ishlardagi ishtirokida teng huquqlilikni ta'minlash;
- xotin-qizlarning millat tayanchi ekanligidan, yosh avlodning ijtimoiy, ahloqiy va mehnat tarbiyasida mas'ulligidan kelib chiqib, ularni ma'rifatli qilish;
- har qanday jamiyatning madaniy-ma'naviy darajasi xotin-qizlarga bo'lgan munosabat bilan belgilanishi bois, ularga nisbatan salbiy munosabatni o'zgartirish[22].

